



**SO'Z UNING TARKIBIY QISMI, SO'ZLARNI ASOS VA
QO'SHIMCHALARGA AJRATA OLİSH AJRATA OLİSH,
YASAMA SO'ZLARNI FARQLASHGA O'RGGATISH**

*Ro'zimatova Shoxsanam Ikrom qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi
+998993354213*

Annotatsiya: Ushhbu maqolada, so'zlarning tarkibiy qismi, so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajrata olish, yasama so'zlarni farqlashga o'rgatish haqida so'z yurutilgan.

Kalit so'zlar: so'z, so'zlarning tarkibiy qismi, so'zlarning asosi, qo'shimchalar, yasama so'zlar.

Annotation: This article talks about the composition of words, the ability to divide words into bases and suffixes, and teaching to distinguish artificial words.

Key words: word, component of words, base of words, adverbs, artificial words.

Аннотация: В данной статье рассказывается о составе слов, умении делить слова на основы и суффиксы, обучении различать искусственные слова.

Ключевые слова: слово, компонент слова, основа слов, наречия, искусственные слова.

Grammatika tilshunoslikning bir qismi bo'lib, u tilning grammatik qurilishini o'rganadi. **Grammatikada** so'zlarning shakliy o'zgarishi, so'z birikmalari hosil qilish usullari, vositalari va gap qurilishi bilan bog'liq qonuniyatlar o'rganiladi.

Lug'at tarkibidagi so'zlar yakka holda fikr ifodalamaydi. Masalan: *To'satdan yomg'ir yog'a boshladi*. Bu gap tarkibidagi so'zlar (*to'satdan*, *yomg'ir*, *yog'moq*, *boshlamoq*) ma'lum grammatik qonun qoidalar asosida shakllantirilgandan so'nggina fikr ifodalamoqda. Demak **grammatika** so'zlarning shakllanishi, birikishi va ularning fikr anglatish tarzini o'rganadi. Grammatika ikki qismni - **morfologiya** va **sintaksisni** o'z ichiga oladi [1:118]. Demak, grammatik ma'no o'z xususiyatiga ko'ra ikki turlidir:

1. Ma'lum bir so'z turkumi uchun umumiyl bo'lgan ma'no. Masalan: *yomg'ir*, *bahor*, *shirinlik*, *qush*, *daraxt* kabi so'zlar uchun mushtarak bo'lgan ma'no predmetlik tushunchasini anglatishidir. Xuddi shu umumiyl grammatik ma'no ularning ot turkumiga mansubligini ko'rsatadi.

2. So'zlar asosiy leksik ma'nosidan tashqari qo'shimcha grammatik ma'noni ham ifodalaydi. Masalan: *kitobim*, *kitobing*, *kitobi*; *uyga*, *uyda*, *uydan*, *bordik*, *yaqinlashyapti* so'zlaridagi egalik, kelishik, zamon, va shaxs-son qo'shimchalari yordamida ifodalanayotgan ma'no ham grammatik ma'no hisoblanadi.



So‘z shakli quyidagicha hosil qilinadi:

1. Sintetik shakl. So‘zning o‘zak-negiziga qo‘sishimchalar qo‘sish orqali hosil qilinadi: *kuldi, yig‘layapti, qalamni, shahardan* kabi.

2. Analitik shakl. Yordamchi so‘zlar ishtirokida hosil qilinadi: *qalam bilan, maktab tomon*. Nutqda sintetik va analitik shakllar aralash holda qo‘llanishi mumkin: so‘zla+**b** ber+**dim**, ona+**m** uchun; ko‘r+**ib** tur+**ib+man**.

3. Juft va takroriy shakl. Bu tipdagi so‘z shakllari ham ma’lum bir grammatik ma’noni ifodalashga xizmat qiladi.[2:86]

Juft shakl. Bir turkumga mansub ikki so‘zning juft holda qo‘llanishidan yuzaga keladi. Bir turkumga mansub har qanday so‘zni juft holda qo‘llab bo‘lmaydi. Buning uchun ularning ma’no munosabati e’tiborga olinadi. So‘zlar juft holda qo‘llanganda umumlashtirish, jamlik ma’nolari o‘rtaga chiqadi: *qishin-yozin (doim), katta-kichik (barcha), mayda-chuyda (arzimas narsalar), aji-buji (tartibsiz), ora-sira (ba’zan)*. Nutqimizda juft so‘zlar qismlarining o‘rnini asosan o‘zgartirilmay qo‘llanadi. *Kalta-kulta, o’lda-jo ‘lda, ota-bola*. Ba’zi juft so‘zlar qismlarining o‘rnini almashtirib qo‘llash mumkin: *eson-omon – omon-eson, asta-sekin – sekin-asta*.

Takroriy shakl. Leksik va grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil etuvchi, takror holda qo‘llangan so‘z shakli takroriy shakl hisoblanadi: *katta-katta (binolar), chopacha-chopacha (charchamoq), joy-joyiga (o’tirmoq), tez-tez (gapirmoq)*.

Bir so‘zni ketma-ket qo‘llash bilan takroriy shakl hosil bo‘lavermaydi. Takroriy shaklda so‘zning leksik ma’nosidan tashqari ma’lum bir grammatik ma’nolar ifodalanishi lozim.

Uslubiy takror tarkibidagi so‘zlar birgalikda boshqa bir ma’noni ifodalamaydi, bir butunlikni hosil qilmaydi. Qaytarilayotgan so‘z asosan, ta’kidni kuchaytirish uchun ishlataladi.[3:27]

Morfologiya (yunoncha *morphe* – «shakl», *logos* – «ta’limot») so‘z va uning grammatik xususiyatlari haqidagi ta’limotdir. **Morfologiyada** so‘zning morfologik tuzilishi, yangi shakl va ma’nolar hosil qilishi bilan bog‘liq qonun-qoidalar o‘rganiladi. Morfologiyada so‘zlar mushtarak yoki farqli belgilari umumlashtirilgan holda turkumlarga ajratib o‘rganiladi. So‘z leksikologiyada leksik birlik sifatida, morfologiyada esa grammatik birlik sifatida o‘rganiladi[4:97].

So‘zning borliqdagi narsa, belgi harakat va voqeа-hodisalar haqidagi tushunchalarni ifodalashi uning **leksik ma’nosi** hisoblanadi. Leksik ma’no so‘zning lug‘aviy (assosiy, o‘zak negiz) qismi orqali anglashiladi. So‘zning biror turkumga mansubligini ko‘rsatuvchi umumiyl kategorial ma’no va so‘zning ma’lum bir grammatik shakli ifodalaydigan ma’no **grammatik ma’no** deyiladi.[5:174]

Morfemika (yoki Morfologiya) so‘z tarkibini o‘rganuvchi bo’limdir. So‘zning tarkibiy qismlari asos va qo‘sishimcha hisoblanadi: *xabar/dor, ilm/li, ulug’/la/moq*.

Asos – so’zning asosiy ma’nosini ifodalab, mustaqil qo’llana oladigan qismi. U boshqa ma’noli qismlarga ajralmaydi. M.: *bil/im/don* so‘zida *bil-*, *bo’yo/q* so‘zida *bo’ya-* asosdir.

Qo’shimcha –mustaqil qo’llana olmaydigan, asosga qo’shilib, unga yangi yoki qo’shimcha ma’no yuklaydigan, shuningdek, so’zlarni bog’lashga xizmat qiladigan qismdir.

M.: *bil/im/don/lik* so‘zida *-im*, *-don*, *-lik* qo’shimchalardir.

So’zlar asos va qo’shimchalarga qanday ajratiladi?

a. Asos bugungi kun nuqtayi nazaridan mustaqil qo’llana olishi kerak.

M.: *gul/la* so’zining asosi *gul*, chunki *gul* degan so’z bor. Ammo *emakla* so’zining asosi *emak* emas, chunki *emak* degan so’z qo’llanmaydi.

b. Asosning ma’nosи tahlil qilinayotgan so’zning ma’nosiga aloqador bo’lishi kerak.

M.: *tomosha* so’zining asosi *tom* emas, chunki *tom* va *tomosha* bir-biriga bog’liq tushunchalar sanalmaydi. Qolaversa, *tomosha* tilimizga arabchadan o’zlashgan.

c. Qo’shimcha boshqa so’zlarda ham uchrashi kerak.

M.: *oilali* so’zidagi *-li* qo’shimchasi *gulli*, *pulli*, *aqli* so’zlarida ham uchraydi, shu bois bu so’z qismlarga ajraladi: *oila/li*.

Lekin *kechqurun* so’zining asosi *kech* bo’lishi mumkin edi, biroq *-qurun* degan qo’shimcha bo’lmaganligi sababli bu so’z tarkibiy qismlarga ajralmaydi. (Istisno: *ko’r/sat*, *suv/sa*, *berk/it*, *berk/in* so’zlari asos va qo’shimchalarga ajraladi.)

d. Arabcha so’zlarning assosi aniq-tiniq ko’rinib turgandagina qismlarga ajraladi.

M.: *adab/iy/ot*, *ma’naviy/at*.

Biroq *musiqiy*, *moddiy* so’zlari bo’laklarga bo’linmaydi, chunki ularning asosi (*musiqa*, *modda*) aniq ko’rinmaydi. (Abituriyentlar uchun shunday tushuntiriladi, xolos.)

e. O’zi mavjud qo’shimchalar ichki qismlarga bo’linmaydi.

M.: *ishdan* so’zidagi *-dan* qo’shimchasi *-da + n ga*; *uyimiz* so’zidagi *-imiz* qo’shimchasi *-im + iz ga* ajratilmaydi. Quyidagi qo’shimchalar haqida ham shuni aytish mumkin: *-gan*, *-ganda*, *-guncha*, *-gancha*, *-gani*; *-gacha*, *-niki*, *-dagi*; *-dan*, *-ning*; *-imiz*, *-ingiz*; *-day*; *-gila* (-*kila*, *-qila*, *-g’ila*); *-moqda*, *-moqchi*, *-maslik*, *-masdan*; *-tacha*, *-tadan*, *-lab*, *-larcha*; *-chasiga...*

Ayrim qo’shimchalar vaziyatga ko’ra 1 ta yoki 2 ta qo’shimcha sanaladi: -chilik (usta/chilik, *gul/chi/lik*), **-lan** (shod/lan, *o’y/la/n*), **-lash** (gap/lash, *so’z/la/sh*) kabi.

f. 1-qoidada aytilganidek, siz ajratayotgan so’z mustaqil qo’llana olishi kerak. Biroq fe’llarda asos mustaqil qo’llana olmasa-yu, xayolan -di qo’shimchasini qo’shganda ma’no anglat olsa, qismlarga ajratish mumkin.



M.: *yozdirilmagan* so'zida *yozdiril* degan so'z bo'limgani uchun *-il* va *-ma* qo'shimchalari ajratilmasligi kerak edi, biroq yuqoridagi qoidaga ko'ra, xayolan *-di* ni qo'shib ko'ramiz: *yozdirildi*. Bunday so'z bor, demak, qo'shimchalarga ajratishimiz mumkin: *yoz/dir/il/ma/gan*

g. Murakkab so'zlar (qo'shma, juft va takroriy so'zlar)da asoslar birdan ortiq bo'ladi.

M.: *otboqarlar* so'zida *ot, boq; idish-tovoq* so'zida *idish, tovoq; choy-poy* so'zida *choy, poy* (choy so'zining o'zgartirib qo'llanishi) asoslardir.

h. Juft va takror so'zlarda ma'no anglatmaydigan qism ham asos sifatida olinaveradi.

M.: *uvali-juvali* so'zida *uvali, juvali; oz-moz* so'zida *oz, moz* asoslardir.

i. Orttirilgan tovush tahlil qilinmaydi.

M.: *Bu* so'ziga *-ga* qo'shimchasini qo'shsak, bir **n** tovushi ortadi: **bunga**. Ushbu so'zning tahlili quyidagicha bo'ladi: Bu – asos, -ga – qo'shimcha, n esa morfemika nuqtayi nazaridan ahamiyatsiz birlik.

j. Gaplarda tushirib qoldirilgan qo'shimcha ham tahlil qilinadi.

M.: *Kitob o'qishdi* gapida *kitob* so'zidan so'ng **-ni** qo'shimchasi borligi hisobga olinadi. Demak, so'z tarkibi jihatdan tahlil mana bunday bo'ladi: *kitob/ni o'qi/sh/di*. *Kitob* - asos, **-ni** – qo'shimcha; *o'qi* – asos, *-sh, -di* – qo'shimchalar.

k. Asos va qo'shimchalarga ajratilmaydigan ayrim so'zlar bilan tanishing va nega ajratilmasligi haqida fikrlab ko'ring: tirik, tiril, moddiy, siyosiy, maishiy, emakla, g'ovla, o'dag'ayla, qulochchin, pastqam, nonushta, shodiyona, biror (biron), bezor, sholcha, qishloq, yuksak, yuksal, semiz, semir, quyuq, ovloq, yurak, uyg'ot, uyg'on, olcha, olmaxon, ko'rish (salomlash), qizg'ish, surishtirmoq, kelin, kechasi, kunduzi, tunlari, chamasi, birdan, birga, birvarakayiga, birpas, qo'g'irchoq, tezob, darbadar[7:89].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminov M., Madvaliyev A. Ish yuritish. Amaliy qo'llanma. – Toshkent: O'zME, 2015.
2. Begmatov E. O'zbek ismlari. – Toshkent: O'zME, 1998.
3. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
4. Jomonov R. X mi H. Qisqacha imlo lug'ati. – Toshkent: Nishon-noshir, 2010.
5. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. – Toshkent: Adolat, 2005.
6. Jumaxo'ja N., Jomonov R. Yangi o'zbek alifbosi va imlo qoidalari. – Toshkent, TDYUI nashriyoti, 2003.
7. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2017.
8. Mahmudov N., Saidqulov Z va b. Komillik kaliti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016.
9. Mahmudova.S.I. So'z yasash san'ati. Oquv-uslubiy qo'llanma. O'zDSI nashri. 2004.
10. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 1998.

